O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UO‘K: 81’255:341.241:81’42

Firuza DAVLATOVA,
PhD, katta o‘qituvchi, Harbiy oliy ta’lim muassasasi, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: firuzad443@gmail.com, ORCID: - 0009-0007-9509-8133

Dotsent, PhD O.Davlatov taqrizi asosida

O‘ZBEK-FRANSUZ DIPLOMATIK-HUQUQIY HUJJATLARINI QIYOSIY GERMENEVTIKA ASOSIDA TALQIN QILISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola o‘zbek-fransuz diplomatik-huquqiy hujjatlarini qiyosiy germenevtika asosida talqin qilishning nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan. Maqolada fransuz va o‘zbek tillaridagi huquqiy tushunchalarning semantik va pragmatik assimetriyasi tahlil qilingan. Qiyosiy tahlil hamda amaliy misollar orqali diplomatik hujjatlarni tarjima qilish va talqin etishdagi asosiy to‘siqlar, jumladan, terminologik lakunalar, sintaksik farqlar va madaniy-tarixiy kontekstlarning ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qiyosiy germenevtika, diplomatik hujjat, semantik assimetriya, o‘zbek-fransuz munosabatlari, pragmatik ekvivalentlik.

ПРОБЛЕМЫ ИНТЕРПРЕТАЦИИ УЗБЕКСКО-ФРАНЦУЗСКИХ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ И ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ НА ОСНОВЕ СРАВНИТЕЛЬНОЙ ГЕРМЕНЕВТИКИ

Аннотация

Научная статья посвящена теоретическим и практическим проблемам интерпретации узбекско-французских дипломатических правовых документов на основе сравнительной герменевтики. В статье анализируется семантическая и прагматическая асимметрия правовых концепций во французском и узбекском языках. С помощью сравнительного анализа и практических примеров раскрываются основные барьеры при переводе и интерпретации дипломатических документов, включая терминологические лакуны, синтаксические различия и влияние культурно-исторических контекстов.

Ключевые слова: Сравнительная герменевтика, дипломатический документ, семантическая асимметрия, узбекско-французские отношения, прагматическая эквивалентность.

PROBLEMS OF INTERPRETING UZBEK-FRENCH DIPLOMATIC AND LEGAL DOCUMENTS BASED ON COMPARATIVE HERMENEUTICS

Annotation

This scientific article is devoted to the theoretical and practical problems of interpreting Uzbek-French diplomatic legal documents based on comparative hermeneutics. The article analyzes the semantic and pragmatic asymmetry of legal concepts in French and Uzbek. Through comparative analysis and practical examples, the main barriers in translating and interpreting diplomatic documents are revealed, including terminological lacunae, syntactic differences, and the influence of cultural-historical contexts.

Key words: Comparative hermeneutics, diplomatic document, semantic asymmetry, Uzbek-French relations, pragmatic equivalence.

Kirish. XXI asr globallashuv jarayonlarida o‘zbek-fransuz diplomatik munosabatlarining huquqiy bazasini shakllantirishda matnlarni talqin qilish masalasi yangi, fundamental ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Zero, diplomatik matn ikki davlatning geosiyosiy, madaniy va huquqiy ongining to‘qnashuv va hamohanglik nuqtasidir. O‘zbek va fransuz tillaridagi diplomatik hujjatlarni o‘zaro moslashtirish jarayoni oddiy “lingvistik tarjima” emas, balki ikki xil huquqiy paradigmaning rang-barangligi bilan ifodalanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G‘arb ilmiy maktabida, xususan, Fransiyada huquqiy germenevtika va qiyosiy huquqshunoslik an’anaviy ravishda chuqur o‘rganilgan. X. Gadamer[1] va P.Rikyorning[2] falsafiy germenevtika nazariyalari huquqiy matnlarni talqin qilishda fundamental asos sifatida xizmat qiladi. J. Kornyu[3] va S. Jerar[4] kabi olimlar fransuz huquqiy tilining lingvistik xususiyatlarini puxta tahlil qilganlar. Biroq, xalqaro tadqiqotlarda ko‘pincha “ingliz-fransuz” yoki “nemis-fransuz” tillaridagi huquqiy tarjima va germenevtika muammolari ustuvorlik qiladi. Turkiy tillar oilasiga mansub va o‘ziga xos huquqiy ongga ega bo‘lgan o‘zbek tili bilan fransuz tilining qiyosiy germenevtik tahlili xalqaro miqyosda deyarli o‘rganilmagan. O‘zbek-fransuz diplomatik huquqiy hujjatlarini qiyosiy germenevtika asosida talqin qilish muammosi bir nechta fanlararo, ya’ni lingvistika, huquqshunoslik, falsafa va siyosatshunoslik fanlari kesishmasida joylashganligi bois atroflicha tadqiq qilinmagan. O‘zbekistonda esa so‘nggi yillarda huquqiy terminologiya, diplomatik protokol va huquqiy tarjima masalalari bo‘yicha B.Karimov[5], A. Sarimsoqov[6], D. Hasanov[7], O. Shermuhamedovlar[8] tomonidan qator fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borildi. Ushbu ishlarda o‘zbek huquqiy tilining shakllanishi, xalqaro shartnomalarni tarjima qilishning lingvistik va huquqiy jihatlari yoritilgan. Biroq, mavjud tadqiqotlarning aksariyati “tarjima nazariyasi” yoki “qiyosiy huquqshunoslik” (taqqoslash) doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbek-fransuz diplomatik hujjatlarini aynan qiyosiy germenevtika metodologiyasi asosida, ya’ni matnning yashirin ma’nolarini, madaniy-tarixiy kontekstlarning ta’sirini va pragmatik siljishlarni o‘rganuvchi yaxlit ilmiy nazariya va amaliy qo‘llanmalar mavjud emas. Shunga ko‘ra, bugungi kunda o‘zbek-fransuz diplomatik huquqiy hujjatlarini talqin qilishda bir qator jiddiy muammolar

mavjud. Birinchidan, semantik va konseptual assimetriya muammosi mavjud bo‘lib, unda fransuz tilidagi aniq, mavhum va ko‘p asrlik huquqiy an’anaga ega bo‘lgan tushunchalar o‘zbek tilidagi hali shakllanish bosqichida bo‘lgan ekvivalentlariga to‘liq mos kelmaydi. Ikkinchidan, pragmatik va madaniy kontekstlarning farqi muammosi mavjud, ya’ni fransuz diplomatik matnidagi ishora va implisiyalar o‘zbek huquqiy matnida boshqacha, ba’zan esa butunlay boshqa ma’noda qabul qilinishi mumkin. Uchinchidan, sintaksik va morfologik to‘siqlar bo‘lib, fransuz tilidagi nomlashuv va passiv konstruksiyalarga asoslangan huquqiy uslub o‘zbek tilidagi fe’lga asoslangan, dinamik va agglyutinativ tuzilma bilan to‘qnashadi. To‘rtinchidan, standartlashtirilgan ikki tilli germenevtik umumiylikning yo‘qligi muammosi mavjud bo‘lib, bu har bir hujjatni talqin qilishda subyektiv xatoliklarga olib keladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun an’anaviy tarjima nazariyasidan voz kechib, qiyosiy germenevtika metodologiyasiga murojaat qilish talab etiladi. Qiyosiy germenevtika falsafiy germenevtikaning huquqiy va lingvistik tahlil sohasiga tatbiq etilishidir. Gadamerning “germenevtik doiralar qo‘shilishi” nazariyasi o‘zbek-fransuz diplomatik matnlarini talqin qilishda markaziy o‘rin tutadi. Bu nazariyaga ko‘ra, tarjimon yoki huquqshunos matnni o‘z ona tili va madaniyati doirasidan chiqqan holda, matn yaratilgan madaniy-huquqiy doiraga kirishi va shu ikki doiraning o‘zaro sintezini yaratishi lozim.

Fransuz huquqiy tili (le français juridique) o‘zining aniqligi, mavhumlik darajasining yuqoriligi va terminologik barqarorligi bilan ajralib turadi. U asosan lotin tili va rim huquqidan oziqlangan bo‘lib, unda har bir so‘zning tarixiy va doktrinal yuki mavjud. Aksincha, o‘zbek huquqiy tili so‘nggi o‘n yilliklarda jadal rivojlanib, arab-fors, rus va g‘arb huquqiy ta’sirlarini o‘zida mujassamlashtirgan holda, milliy turkiy huquqiy tafakkur asosida shakllanib kelmoqda. Qiyosiy germenevtika shu nuqtai nazardan ikki tilning “huquqiy olami”ni taqqoslash va ular o‘rtasidagi “ma’naviy ko‘prik”ni qurish vositasi hisoblanadi. O‘zbek-fransuz diplomatik hujjatlarini talqin qilishdagi muammolarning ildizi tillararo tipologik farqlarda yotadi. Fransuz tili roman tillari guruhiga kirib, unda grammatik jins, keng miqyosdagi ortiqcha so‘zlar va murakkab sintaksik iyerarxiya mavjud. Huquqiy matnlarda fransuz tili ko‘pincha ismlarga (nominativ) va sifatlarga tayanadi, bu esa huquqiy normani statik va obyektiv ko‘rinishda taqdim etadi. Masalan, “La responsabilité de l'État” (Davlatning javobgarligi) iborasida holat statik va mutlaq tusga ega[9]. O‘zbek tili esa turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, agglyutinativ (qo‘shimchalar orqali so‘z yaratish) xususiyatga ega. Unda grammatik jins tushunchasi yo‘q, sintaksis esa asosan fe’lga va uning boshqaruviga tayanadi. O‘zbek huquqiy tilida dinamizm va jarayonni ifodalash ustunlik qiladi. Shu sababli, fransuz tilidagi statik huquqiy konstruksiyalarni o‘zbek tiliga o‘tkazishda ko‘pincha fe’llar qo‘shilishiga to‘g‘ri keladi, bu esa matnning pragmatik ohangini o‘zgartiradi. Masalan, yuqoridagi iborani o‘zbek tilida “Davlat javobgar bo‘ladi” yoki “Davlatning javobgarligi nazarda tutiladi” shaklida ifodalashga to‘g‘ri keladi, bu esa germenevtik jihatdan ma’noning biroz bo‘lsa-da, siljishiga (décalage) olib keladi.

Tahlil va natijalar. O‘zbek-fransuz diplomatik hujjatlarini talqin qilishdagi muammolarni uchta asosiy kategoriyaga bo‘lib o‘rganishni joiz deb topdik. Bular: terminologik lakunalar, sintaksik-pragmatik ekvivalentsizlik va madaniy-tarixiy kontekstlarning to‘qnashuvi.

1. Terminologik lakunalar va konseptual assimetriY. Diplomatik va xalqaro huquqiy hujjatlarda ishlatiladigan ko‘plab tushunchalar fransuz tilida aniq huquqiy ta’rifga ega bo‘lsa-da, o‘zbek tilida ularning ekvivalentlari hali to‘liq shakllanmagan yoki bir nechta ma’noni ifodalaydi. Masalan, savdo-iqtisodiy shartnomada “Aucune des Parties ne sera tenue responsable de l'inexécution de ses obligations si cette inexécution résulte d'un cas de force majeure”. Tarjima matni: “Tomonlardan hech biri o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi, agar bu bajarmaslik kuch oliy holati natijasida kelib chiqqan bo‘lsa”. Fransuz fuqarolik kodeksining 1218-moddasiga ko‘ra, “force majeure” uchta kumulyativ shartni talab qiladi, ya’ni hodisa tashqi bo‘lishi, oldindan ko‘rib bo‘lmasligi va choralar ko‘rib bartaraf etib bo‘lmasligi. O‘zbek tilidagi “kuch oliy holati” iborasi esa ko‘pincha faqat “tabiiy ofatlar” yoki “urush” kabi tashqi holatlar bilan chegaralanadi. Agar fransuz kompaniyasi iqtisodiy inqirozni “ko‘rib bo‘lmas holat” deb talqin qilsa, o‘zbek sudi yoki huquqshunosi buning “kuch oliy holati” emas, balki “tijorat xavfi” ekanligini aytishi mumkin. Bu yerda so‘zlarning emas, balki tushunchalarning germenevtik assimetriyasi yuzaga keladi. Bu esa shartnomalarda nizolarga olib keladi.

2. Sintaksik-pragmatik ekvivalentsizlik. Fransuz diplomatik matnlari ko‘pincha o‘ta murakkab, bir nechta tobe jumlalardan iborat davriy jumlalardan iborat bo‘lib, bu huquqiy normaning barcha istisno va shartlarini bir jumlada jamlashga xizmat qiladi. O‘zbek tilida esa bunday murakkab jumlalarni talqin qilish o‘quvchi uchun og‘irlik tug‘diradi. Germenevtik jihatdan, fransuzcha jumlaning “ma’noviy markazi” oxirida joylashgan bo‘lsa, o‘zbek tilida markaziy ma’no boshda aytilib, keyin izohlanadi. Bu strukturalarni o‘zgartirish matnning huquqiy vaznini o‘zgartirib yuboradi. Ushbu muammolarni tizimlashtirish uchun quyidagi jadvalni taklif qilamiz. Asosiy diplomatik-huquqiy tushunchalarning semantik va pragmatik ekvivalentligi

Fransuz matni	O‘zbek tilidagi ekvivalenti	Semantik muammo	Pragmatik/Madaniy kontekst farqi
La clause de la nation la plus favorisée	Eng qulay imtiyozlar tartibi (Eng qulay millat tartibi)	“Millat” (nation) so‘zining o‘zbek tilidagi kundalik va huquqiy ma’nolari o‘rtasidagi farq. “Imtiyoz” tushunchasining kengligi.	Fransiyada bu tarixiy savdo erkinligi tamoyili bo‘lsa, O‘zbekistonda bu iqtisodiy suverenitetni cheklash sifatida ehtiyotkorlik bilan qabul qilinadi.
L'expropriation pour cause d'utilité publique	Davlat ehtiyojlari uchun mulkni majburiy olish	“Eksepropriasiya” atamasi o‘zbek tilida to‘liq singmagan, “olish” so‘zi esa jazo yoki musodara ma’nosidagi “musodara” bilan aralashib ketishi mumkin.	Fransiyada bu fuqarolik huquqlari va davlat manfaati o‘rtasidagi muvozanat bo‘lsa, O‘zbekistonda bu davlatning iqtisodiy siyosati va islohotlar kontekstida talqin qilinadi.
Le principe de la prééminence du droit	Huquqiy ustunlik tamoyili (Qonun ustuvorligi)	“Huquq” (droit) va “Qonun” (loi) o‘rtasidagi farq. Fransuzcha “droit” tabiiy huquqni ham o‘z ichiga oladi, o‘zbekcha “huquq” ko‘proq pozitiv huquqga yaqin.	Fransiyada bu falsafiy-huquqiy kategoriya bo‘lsa, O‘zbekistonda bu asosan amaldagi qonunchilikka rioya qilishning ma’muriy-huquqiy mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

La bonne foi (dans l'exécution des traités)	Vijdonan (yaxshi niyat bilan) bajarish	Yaxshi niyat (bonne foi) iborasi o‘zbek tilida ko‘proq ma’naviy-axloqiy ma’noni anglatadi, huquqiy standart sifatidagi aniqligi yo‘qolgan.	Fransiyada bu Fuqarolik kodeksining (mod. 1104) asosiy prinsiplaridan biri bo‘lsa, o‘zbek tilida bu rasmiy-ma’muriy majburiyatning bir qismi sifatida qabul qilinadi.

3. Madaniy-tarixiy kontekstlarning ta’siri. Fransuz huquqiy tafakkuri Inson huquqlari Deklarasiyasi (1789) va Napoleon kodeksi (1804) an’analariga tayanadi, bu yerda individualizm va shartnoma erkinligi ustuvor. O‘zbek huquqiy tafakkurida esa jamoaviylik, davlat manfaatlari va an’anaviy qadriyatlar elementlari kuchli. Diplomatik hujjatlarni talqin qilishda madaniy-tarixiy kontekstning ta’siri nihoyatda kuchli. Fransiya diplomatik an’analari o‘ta rasmiy, iyerarxik va “ehtirom” (déférence) tamoyillariga asoslangan. Fransuzcha matnlarda ko‘pincha o‘ta mulohazali, bilvosita ishora qiluvchi iboralar (formules de politesse, conditionnel) ishlatiladi. Masalan, “Le Gouvernement français serait reconnaissant...” (Fransiya hukumati minnatdor bo‘lar edi...) [10]. O‘zbek diplomatik an’analari esa, bir tomondan, sharqona mehmondo‘stlik, samimiylik va to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatlarga asoslangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, diplomatik protokolning qat’iy va rasmiy uslubini o‘zlashtirgan. Shuning uchun o‘zbekcha matnlarda aniq va qat’iy iboralar ko‘proq uchraydi. Fransuzcha “iltimos” yoki “taklif” shaklidagi diplomatik hujjat o‘zbekchaga o‘tkazilganda, uning “majburiy ko‘rsatma” yoki “qat’iy talab” sifatida talqin qilinishi xavfi mavjud. Bu germenevtik jarayonda “ilmiy-pragmatik” xatolik bo‘lib, ikki tomonlama munosabatlarda salbiy ta’sir qilishi mumkin. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish va germenevtik talqinni takomillashtirish uchun quyida o‘zbek-fransuz diplomatik hujjatlaridagi germenevtik to‘siqlar va ularni bartaraf etish mexanizmlari ko‘rinishini jadval asosida tahlilini taqdim etdik:

Germenevtik to‘siq turi	Ta’rifi va namoyon bo‘lishi	Bartaraf etish mexanizmi (Qiyosiy germenevtika asosida)
Konseptual lakuna	Bir tildagi huquqiy tushunchaning ikkinchi tilda to‘liq ekvivalentining yo‘qligi (masalan, “droit” – “huquq”).	“Tarjima – izoh” (Traduction-commentaire) usulini qo‘llash lozim.
Sintaksik deformasiya	Fransuzcha murakkab jumlalarning o‘zbek tiliga tarjima qilinganda ma’nosining yo‘qolishi.	Matnni “ma’noviy bloklar”ga (unités de sens) bo‘lib tarjima qilish va o‘zbek tilining tabiiy sintaksisiga moslashtirish, lekin huquqiy mantiqni saqlab qolish.
Pragmatik siljish	Diplomatik ehtirom va mulohazalilik darajasining tarjimada o‘zgarib ketishi (bilvosita yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri).	Diplomatik protokol va etiket qoidalarini hisobga olgan holda “pragmatik adaptasiya” qilish. Matnning ruhini (esprit) saqlab qolishga urinish.
Madaniy-tarixiy farq	Huquqiy an’analar to‘qnashuvi.	Matnni tarixiy-qiyosiy tahlil qilish. Har ikki tarafning huquqiy ong doirasini o‘rganish va “o‘zaro kelishuv” (compromis) nuqtasini topish.

Xulosa va takliflar. Demak, qiyosiy germenevtika tamoyillariga amal qilmaslik yoki ularni noto‘g‘ri talqin qilish ikki tomonlama munosabatlarda o‘zaro noqulay huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Buning oqibatida siyosiy va diplomatik munosabatlarda ishonchsizlik vujudga keladi. Undan tashqari qo‘shma bayonotlardagi iboralarning ikki xil talqin qilinishi ikki davlatning rasmiy pozisiyalari o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatib, diplomatik bahslarga sabab bo‘lishi mumkin. Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek-fransuz diplomatik-huquqiy hujjatlarini qiyosiy germenevtika asosida talqin qilish masalasi shunchaki lingvistik yoki huquqiy texnik vazifa emas, balki chuqur falsafiy, madaniy va geosiyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy muammo ekan. Qiyosiy tahlil jarayonida o‘zbek va fransuz tillari o‘rtasidagi huquqiy-diplomatik tarjima jarayonida semantik assimetriya, sintaksik deformasiya va madaniy-pragmatik siljishlar kabi jiddiy germenevtik to‘siqlar mavjudligi aniqlandi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun an’anaviy, ya’ni “so‘zma-so‘z” tarjima uslubidan voz kechib, qiyosiy germenevtika tamoyillariga asoslangan yangi metodologiyani joriy etish zarur. Buning uchun, birinchidan, o‘zbek-fransuz diplomatik-huquqiy tushunchalarining qiyosiy germenevtik lug‘atini yaratish; ikkinchidan, diplomatik tarjimonlar va huquqshunoslarni nafaqat tilshunoslik, balki qiyosiy huquqshunoslik va madaniy germenevtika sohalarida maxsus tayyorlash; uchinchidan, har ikki davlatning huquqiy an’analarini chuqur anglagan holda, hujjatlarning ikki tildagi nusxalarini bir vaqtda, o‘zaro muvofiqlashtirib ishlab chiqish (co-rédaction) amaliyotini joriy etish talab etiladi. Faqat shu yo‘l bilangina o‘zbek-fransuz diplomatik hujjatlari har ikki taraf uchun adolatli, aniq va barqaror huquqiy baza bo‘lib xizmat qila oladi.

ADABIYOTLAR

1. Гадамер Х.Г. Истина и метод. Герменевтика I. – М.: Прогресс, 1999. – 704 б.
2. Рикёр П. Конфликт интерпретаций. Очерки к герменевтике. – М.: Культурная революция, 2008. – 420 б.
3. Cornu G. Linguistique juridique. – Paris: Montchrestien, 2005. – 380 p.
4. Gérard C. Le français juridique. – Paris: PUF, 2010. – 128 p.
5. Каримов Б. Ўзбек ҳуқуқий тилининг шаклланиш ва ривожланиш муаммолари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 256 б.
6. Саримсоқов А. Халқаро шартномалар ҳуқуқи: назария ва амалиёт. – Тошкент: Ўзбекистон миллий университети, 2020. – 312 б.
7. Ҳасанов Д. Қиёсий ҳуқуқшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 280 б.
8. Шермуҳамедов О. Дипломатик ҳужжатларни таржима қилишнинг лингвистик хусусиятлари. // Ўзбекистон тил ва адабиёти масалалари. – 2021. – №2. – 45-52 бб.
9. Jean-Marc S. La traduction juridique. – Paris: Dalloz, 2012. – 250 p.
10. Code civil français. Édition 2023. – Paris: Dalloz.